XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 6 - yanvar VI-67-1-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrda va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida 27-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil budjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yil 24-oktabrdagi 02-958-sonli va Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1020-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qonunga muvofiq, Toshkent viloyati mahalliy budjetining 2023-yil

uchun daromadlari 5 866 171,9 mln.so‘m va xarajatlari 5 866 171,9 mln.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Toshkent viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat Toshkent viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 20 542,9 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Toshkent viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2023-yil uchun viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna

hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 32 417,0 mln.so‘mni hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 8-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer maydonlariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi

tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 63 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 63 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-avgustdagi PF–6053-son Farmoniga asosan Bo‘stonliq tumanida litsenziya va ruxsatnoma berishdan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va ma’muriy huquqbuzarliklar uchun jarimadan respublika va viloyat mahalliy budjetiga tushadigan mablag‘lar va bojlar to‘liqligicha tuman mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi.

12. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha

mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Muzaffar Fayziyev), Moliya bosh boshqarmasi, Davlat soliq boshqarmasi (Ravshan Raimov), tuman va shahar hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (Ravshan Raimov) Davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk

soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (Ravshan Raimov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Markaziy mintaqaviy inspeksiyasi (H.Abdullayev) hamda tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Toshkent viloyat boshqarmasi (Axrorbek Arziyev) viloyat davlat soliq boshqarmasi (Ravshan Raimov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i (Bahtiyor Begmatov), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (Sardor Jumaev) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (L.Ataxodjayev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

19. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (Sardor Jumaev), viloyat davlat soliq boshqarmasi (Ravshan Raimov), viloyat moliya bosh boshqarmasi davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

20. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi (Jo‘rabek Ismailov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat

o‘rnatsin.

21. Toshkent irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi (Bahtiyor Qurbonov) va viloyat davlat soliq boshqarmasi (R.Raimov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi (Toxir Aripov), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Bahtiyor Nigmanov), viloyat adliya boshqarmasi (Dadajonov Abdumutalib) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

23. Davlat Moliyaviy nazorati Toshkent viloyat boshqarmasi (Sanjar Xudoyberdiyev) Xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalarining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengasha axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

24. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan

nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklari:

Tuman va shahar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar) hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

26. Viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Muzaffar Fayziyev), Xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Toshkent viloyat hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Muradjan Nasirov va viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi o'rinbosari **R.Turdiboyeva**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Toshkent viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy prognoz va 2023-2024-yillarga maqsadli mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2024-yil	2025-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	115 833	138 288	157 835
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	106.1	108.4	108.7
3.	Iste’mol narxlari indeksi,dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	110.1	110.0	109.9
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	108.0	109.6	109.8
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103.6	104.7	105.0
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	108.7	107.4	108.8

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati viloyat budjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**3 869 849 929.0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	554 290 055.0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	162 060 351.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 375 399 009.0
4	Aksiz solig‘i jami	331 946 380.0
	shu jumladan:	
	-yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdan aksiz solig‘i	*331 946 380.0*
5	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	62 106 000.0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	208 751 723.0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	475 658 068.0
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	82 614 479.0
9	Davlat bojlari	211 771 049.0
10	Jarimalar	217 412 815.0
11	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	5 058 000.0
12	Yig‘imlar	82 782 000.0
13	Davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	100 000 000.0

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun Toshkent viloyati viloyat budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar miqdori, Jami	**3 869 849 929.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 520 128 633.0**
	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	**1 403 093 262.0**
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	**60 420 437.0**
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	**8 050 000.0**
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	**89 619 000.0**
	issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	**3 528 161.0**
	ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	**38 053 908.0**
	sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	**31 900 000.0**
	avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	**9 041 760.0**
	«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasidagi mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ishlatiladigan qismi	**391 922 007.0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**314 092 761.0**
1.	**Maktabgacha ta’lim boshqarmasi**	**81 658 408.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 441 402.0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	73 217 006.0
2.	**Xalq ta’limi boshqarmasi**	**371 765 510.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	255 476 541.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	116 288 969.0
3.	**Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi**	**1 004 514.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 004 514.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**650 707 758.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	555 674 058.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	95 033 700.0
5.	**Tibbiy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi**	**59 129 329.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	59 129 329.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Madaniyat boshqarmasi**	**27 273 591.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	27 273 591.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Sportni rivojlantirish boshqarmasi**	**67 035 687.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	67 035 687.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Obodonlashtirish bosh boshqarmasi**	**21 084 199.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 824 199.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	1 260 000.0

9.	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**135 623 167.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 422 098.0
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	89 619 000.0
	issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	3 528 161.0
	ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	38 053 908.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**2 672 337.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 672 337.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi**	**19 816 074.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 816 074.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**161 436 935.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	122 371 449.0
	sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	31 900 000.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	7 165 486.0
13.	**Transport boshqarmasi**	**13 822 553.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 780 793.0
	avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	9 041 760.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**170 680.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	170 680.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

15.	**Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi**	**1 713 097.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 713 097.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16.	**Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi**	**8 712 143.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 712 143.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17.	**Moliya bosh boshqarmasi**	**1 483 884 259.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 720 560.0
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	60 420 437.0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	8 050 000.0
	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	1 403 093 262.0
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	6 600 000.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18.	**G‘aznachilik boshqarmasi**	**15 093 666.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 093 666.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19.	**Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmasi**	**25 027 665.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	25 027 665.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Turizm va madaniy meros boshqarmasi	**2 563 149.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 563 149.0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20.	**Prezident devon arxivi**	**91 091.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	91 091.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21.	**O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi**	**102 139 089.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	102 139 089.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**7 405 793.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 405 793.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23.	**Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi**	**1 951 977.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 951 977.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24.	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**2 249 202.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 249 202.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25.	**Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi**	**1 883 432.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 883 432.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26.	**Qurilish bosh boshqarmasi**	**3 628 065.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 628 065.0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27.	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**14 791 820.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 791 820.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28.	**Adliya boshqarmasi**	**12 006 891.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 006 891.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
29.	**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi**	**17 294 294.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 294 294.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
30.	**Hokimiyat**	**433 012 700.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	41 090 693.0
	«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasidagi mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ishlatiladigan qismi	391 922 007.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
31.	**Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi**	**1 589 717.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 589 717.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
32.	**Toshkent viloyati Xalq deputatlari Kengashi kotibi**	**483 289.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	483 289.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
33.	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspesiyasining hududiy boshqarmasi**	**7 804 169.0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 804 169.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
34.	**Saylov komissisiyalari**	**69 559.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	69 559.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
35.	**Nodavlat notijorat tashkilotlar**	**7 085 638.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 085 638.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
36.	**Davlat arxivi boshqarmasi**	**3 462 643.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 462 643.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
37.	**Mahallabay boshqarma**	**1 835 275.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 835 275.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
38.	**Xotin qizlar**	**1 290 052.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 290 052.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
39.	**Prezident ta’lim**	**318 021.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	318 021.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
40.	**Boshqa xarajatlar**	**99 262 491.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	78 134 891.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	21 127 600.0

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslar-dan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslar-dan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Olmaliq shahri**	5	5	20	20	20	30	25	100
2	**Angren shahri**	5	5	50	40	40	50	100	100
3	**Ohangaron shahri**	10	10	50	50	70	50	100	0
4	**Bekobod shahri**	10	5	20	20	20	30	100	0
5	**Chirchiq shahri**	10	10	5	5	5	50	70	100

6	**Yangiyo‘l shahri**	35	45	80	80	100	50	100	0
7	**Ohangaron tumani**	15	10	5	5	15	30	100	100
8	**Bekobod tumani**	63	63	100	100	100	50	100	100
9	**Oqqo‘rg‘on tumani**	63	63	100	80	100	30	100	100
10	**Bo‘stonliq tumani**	10	5	5	10	5	50	100	100
11	**Bo‘ka tumani**	63	63	100	80	100	30	100	0
12	**Yuqori Chirchiq tumani**	15	15	20	10	15	50	100	100
13	**Quyi Chirchiq tumani**	20	20	80	80	80	50	100	100
14	**Zangiota tumani**	5	5	18	10		30	100	100
15	**Qibray tumani**	5	5	10	10		30	100	100
16	**Parkent tumani**	50	63	100	85	100	50	100	100
17	**Piskent tumani**	63	63	10	10	30	30	100	100
18	**O‘rta Chirchiq tumani**	5	5	10	10	10	50	100	100
19	**Toshkent tumani**	10	10	15	10	10	50	100	0
20	**Chinoz tumani**	30	30	80	80	80	35	100	100
21	**Yangiyo‘l tumani**	10	10	20	10	20	50	100	100
22	**Nurafshon shahri**	10	10	70	60	80	40	100	0

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Toshkent viloyatining shahar va tuman budjetlarining 2023-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Olmaliq shahri	129 682 838.0	182 457 205.0
2	Angren shahri	113 789 388.0	215 690 386.0
3	Ohangaron shahri	47 518 392.0	87 074 433.0
4	Bekobod shahri	71 600 772.0	140 038 821.0
5	Chirchiq shahri	103 723 730.0	154 175 655.0
6	Yangiyo‘l shahri	68 997 567.0	115 143 255.0
7	Ohangaron tumani	79 392 432.0	116 885 516.0
8	Bekobod tumani	100 727 158.0	202 664 211.0
9	Oqqo‘rg‘on tumani	80 558 764.0	136 104 937.0
10	Bo‘stonliq tumani	113 591 117.0	175 102 504.0
11	Bo‘ka tumani	94 947 862.0	171 396 426.0
12	Yuqori Chirchiq tumani	88 495 328.0	143 268 648.0
13	Quyi Chirchiq tumani	87 686 232.0	149 655 772.0
14	Zangiota tumani	108 975 714.0	179 796 186.0
15	Qibray tumani	104 600 794.0	172 082 044.0
16	Parkent tumani	114 139 635.0	202 697 126.0
17	Piskent tumani	78 370 981.0	129 423 846.0
18	O‘rta Chirchiq tumani	64 381 076.0	114 004 353.0
19	Toshkent tumani	101 043 942.0	178 540 343.0
20	Chinoz tumani	86 852 252.0	166 742 646.0
21	Yangiyo‘l tumani	89 112 441.0	164 803 859.0
22	Nurafshon shahri	68 133 602.0	101 667 107.0
	JAMI	**1 996 322 017.0**	**3 399 415 279.0**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Toshkent viloyati shahar va tumanlar budjetlariga 2023-yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Summa
1	Olmaliq shahri	52 774 367.0
2	Angren shahri	101 900 998.0
3	Ohangaron shahri	39 556 041.0
4	Bekobod shahri	68 438 049.0
5	Chirchiq shahri	50 451 925.0
6	Yangiyo‘l shahri	46 145 688.0
7	Ohangaron tumani	37 493 084.0
8	Bekobod tumani	101 937 053.0
9	Oqqo‘rg‘on tumani	55 546 173.0
10	Bo‘stonliq tumani	61 511 387.0
11	Bo‘ka tumani	76 448 564.0
12	Yuqori Chirchiq tumani	54 773 320.0
13	Quyi Chirchiq tumani	61 969 540.0
14	Zangiota tumani	70 820 472.0
15	Qibray tumani	67 481 250.0
16	Parkent tumani	88 557 491.0
17	Piskent tumani	51 052 865.0
18	O‘rta Chirchiq tumani	49 623 277.0
19	Toshkent tumani	77 496 401.0
20	Chinoz tumani	79 890 394.0
21	Yangiyo‘l tumani	75 691 418.0
22	Nurafshon shahri	33 533 505.0
	JAMI	**1 403 093 262.0**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

Toshkent viloyati viloyat, shahar va tumanlar budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Viloyat budjeti	11 983 149.0
2	Olmaliq shahri	1 033 813.0
3	Angren shahri	1 388 681.0
4	Ohangaron shahri	494 199.0
5	Bekobod shahri	756 754.0
6	Chirchiq shahri	910 558.0
7	Yangiyo‘l shahri	648 355.0
8	Ohangaron tumani	610 638.0
9	Bekobod tumani	1 260 378.0
10	Oqqo‘rg‘on tumani	818 397.0
11	Bo‘stonliq tumani	980 522.0
12	Bo‘ka tumani	1 100 332.0
13	Yuqori Chirchiq tumani	880 144.0
14	Quyi Chirchiq tumani	900 031.0
15	Zangiota tumani	1 071 448.0
16	Qibray tumani	1 141 837.0
17	Parkent tumani	1 223 100.0
18	Piskent tumani	852 099.0
19	O‘rta Chirchiq tumani	714 931.0
20	Toshkent tumani	1 049 869.0
21	Chinoz tumani	974 589.0
22	Yangiyo‘l tumani	1 016 212.0
23	Nurafshon shahri	606 964.0
	JAMI	**32 417 000.0**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (so‘mda)
1	Olmaliq shahri	1.40	46 200.0	1.40	415.8
2	Angren shahri	1.40	46 200.0	1.40	415.8
3	Ohangaron shahri	1.20	39 600.0	1.20	356.4
4	Bekobod shahri	1.20	39 600.0	1.20	356.4
5	Chirchiq shahri	1.40	46 200.0	1.40	415.8
6	Yangiyo‘l shahri	1.20	39 600.0	1.20	356.4
7	Ohangaron tumani	0.90	29 700.0	0.90	267.3
8	Bekobod tumani	0.90	29 700.0	0.90	267.3
9	Oqqo‘rg‘on tumani	0.90	29 700.0	1.00	297.0
10	Bo‘stonliq tumani	1.20	39 600.0	1.20	356.4
11	Bo‘ka tumani	0.90	29 700.0	0.90	267.3
12	Yuqori Chirchiq tumani	1.20	39 600.0	1.20	356.4
13	Quyi Chirchiq tumani	0.90	29 700.0	1.00	297.0
14	Zangiota tumani	1.20	39 600.0	1.30	386.1
15	Qibray tumani	1.20	39 600.0	1.20	356.4
16	Parkent tumani	0.90	29 700.0	1.00	297.0
17	Piskent tumani	0.90	29 700.0	1.00	297.0
18	O‘rta Chirchiq tumani	1.20	39 600.0	1.20	356.4
19	Toshkent tumani	1.20	39 600.0	1.20	356.4
20	Chinoz tumani	0.90	29 700.0	1.00	297.0
21	Yangiyo‘l tumani	1.10	36 300.0	1.00	297.0
22	Nurafshon shahri	1.10	36 300.0	1.00	297.0

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga
9-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Olmaliq shahri	1.00	1 000 000.0
2	Angren shahri	1.00	1 000 000.0
3	Ohangaron shahri	1.00	1 000 000.0
4	Bekobod shahri	1.00	1 000 000.0
5	Chirchiq shahri	1.00	1 000 000.0
6	Yangiyo‘l shahri	1.00	1 000 000.0
7	Ohangaron tumani	0.90	900 000.0
8	Bekobod tumani	0.80	800 000.0
9	Oqqo‘rg‘on tumani	0.80	800 000.0
10	Bo‘stonliq tumani	1.00	1 000 000.0
11	Bo‘ka tumani	0.80	800 000.0
12	Yuqori Chirchiq tumani	1.00	1 000 000.0
13	Quyi Chirchiq tumani	0.80	800 000.0
14	Zangiota tumani	1.00	1 000 000.0
15	Qibray tumani	1.00	1 000 000.0
16	Parkent tumani	0.90	900 000.0
17	Piskent tumani	0.80	800 000.0
18	O‘rta Chirchiq tumani	1.00	1 000 000.0
19	Toshkent tumani	1.00	1 000 000.0
20	Chinoz tumani	0.80	800 000.0
21	Yangiyo‘l tumani	1.00	1 000 000.0
22	Nurafshon shahri	1.00	1 500 000.0